

## BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 085,8 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 120,9 mln. AQSH dollariga yoki 12,5 % ga ko'paydi.

**Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)**



TSAda eksport hajmi 245,9 mln. AQSH dollariga (2024-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 10,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 839,9 mln. AQSH dollariga (13,1 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 594,0 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2023y.	2024y.	2025y.
<b>Rossiya</b>	<b>322,4</b>	<b>270,0</b>	<b>405,0</b>
<b>XXR</b>	155,9	288,4	204,4
Turkmaniston	71,6	71,8	109,6
Afgoniston	42,8	58,0	82,4
Qozog'iston	56,5	45,3	54,4
Eron	30,2	64,9	51,8
Turkiya	55,8	41,1	29,1
BAA	3,4	1,7	23,0
Qirgiz Respublikasi	17,4	12,7	15,5
Tojikiston	20,4	9,0	15,5
Germaniya	25,2	27,1	14,5
Hindiston	9,3	9,0	12,6
Daniya	0,1	0,1	8,3
Belarus	8,5	8,8	5,6
Pokiston	3,1	4,5	5,4
Polsha	11,5	4,7	5,0
Italiya	1,3	2,1	4,1
Koreya Respublikasi	6,9	4,3	3,6
AQSH	0,3	6,8	3,5
Ukraina	3,3	2,0	2,7

Buxoro viloyati 88 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (37,3 %), XXR da (18,8 %), Turkmanistonda (10,1%) Afg'onistonda (7,6 %), va Qozog'istonda (5,0 %), qayd etilgan.

**II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI**

2.1- jadval


Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>222,2</b>	<b>245,9</b>	<b>110,6</b>	<b>99,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,8	24,3	164,3	84,1	6,7	9,9
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,5	100,8	58,0	0,6	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,3	7,5	56,0	155,9	6,0	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	52,9	75,2	142,1	104,7	23,8	30,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,5	0,1	2,9	119,3 b	1,6	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,0	3,7	91,2	57,2	1,8	1,5
Sanoat tovarlari	103,8	77,0	74,1	98,5	46,7	31,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,9	19,6	10,1 b	55,3	0,9	8,0
Turli xil tayyor buyumlar	11,6	15,9	136,7	87,2	5,2	6,5
Xizmatlar	14,8	21,2	143,1	95,9	6,7	8,6

Mavzugadoirhavola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,4 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (31,3 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (30,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**


*(mln.AQSHdollari)*



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yil yanvar-sentabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (33,4 %), Rossiya (30,8 %), Qozog'iston (7,8 %), Tojikiston (4,8 %), Turkmaniston (3,3 %), Qirg'iston (2,9 %), Pokiston (2,1 %), XXR (1,8 %), Germaniya (2,0 %), va Eron (1,6 %), kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.

### **Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)**



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 21,2 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 8,6 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 43,1 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (13,4 %), safarlar (turizm) (13,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (7,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (40,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

### **III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI**

2025-yilning yanvar-sentabr oyida import hajmi 839,9 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng kata ulush, Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (43,0 %), Mashinalar va transport asbob-uskunalar (20,4 %), sanoat tovarlari (12,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

## Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
<b>Jami import</b>	<b>742,7</b>	<b>839,9</b>	<b>110,7</b>	<b>113,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqatmahsulotlarivatihayvonlar	14,5	19,5	79,5	135,0	1,9	2,3
Ichimliklarvatamaki	0,7	2,1	9,1 m.	3,1 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'iantashqari	14,5	28,0	71,1	193,5	2,0	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lashmoylarivashungao'xshashmater iallar	249,0	361,1	80,8	145,0	33,5	43,0
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	1,1	0,2	133,2	21,0	0,1	-
Kimyoviyvositalarvashungao'xshashma hsulotlar	54,5	105,2	77,0	193,2	7,3	12,5
Sanoattovarlari	38,5	106,5	87,2	2,8 m.	5,2	12,7
Mashinalarva transport asbob- uskunalar	216,0	171,6	155,8	79,5	29,1	20,4
Turlixiltayyorbuyumlar	153,6	45,3	2,2 m.	29,5	20,7	5,4
Boshqatovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,5	0,3	-	59,7	0,1	0,0

Mavzuga doir havola:[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 839,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,3 mln. AQSH dollariga yetdi.

## Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2025-yil yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyati 75 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (39,2 %), XXR (23,8 %), Turkmaniston (12,1 %), Eron (5,7 %), Qozog'iston (4,2 %), Turkiya (3,1 %) va OAA (2,7 %) jami importning 90,2 % ni tashkiletdi.

Mavzuga doir havola:[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %), ga tegishli bo'ldi.

#### IV. METAMA'LUMOTLAR

\*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	<b>Boshqarma boshlig'i:</b> U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	<b>Ijrochi:</b> Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : <a href="mailto:info@buxstat.uz">info@buxstat.uz</a> <a href="mailto:buxstat@exat.uz">buxstat@exat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 100170, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
---	--	--	--